

Odamboyeva Mohichehra San'atbek qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

Men O'zbekning farzandi

Menda faxr , g'urur bor, menga bobom ruhi yor.
Ayting kimdan kamim bor , men o'zbekning farzandi.

Yo'limda salomim bor , dilimda kalomim bor ,
Ne tilasam shu bisyor , men o'zbekning farzandi.

Qildim bobomga ixlos , derlar ixloski xalos,
O'rganyapman kam-kam, oz , men Xorazmiy farzandi.

Algebra , al-jabr, deydi bobom - fikr qil ,
Shunda biyron sayrar til , menkim uning dilbandi.

Qalbing iymonga to'lsa , qo'ling ko'ksingda bo'lsa.
Yurt senga ixlos qo'ysa, bo'larsan el farzandi.

Deydi bobolar shunday , ular o'giti nurday,
Qimmatli so'zi durday , menkim ular dilbandi.

Qizingizman men elim, senga bog'langan dilim,
Xizmatda qotsa belim , bo'lib asl farzandi.

Bo'larsan rozi mendan , men ham minnatdor sendan,
Derman quv nab ko'ngildan , men o'zbekning dilbandi!

So'zimni bir tingla, o'yinqarog'im
G'aflat uyqusidan uyg'on, oppog'im
O'chirib qo'y ma- da yoqqan chirog'im
Behbudiy bobongman, tanimadingmi?

Ma'rifat yo'lida dedim: sobit tur
Men bosgan izlardan xayollamay yur
Ummonga qo'shilib, nurli hayot qur
Behbudiy bobongman, tanimadingmi?

Dedim: vatanfurush bizlarga yotdir
Kim Vatanni sevsa qalbi ozoddir
Vatan deb qon to'ksa, bil, oliy zotdir
Behbudiy bobongman, tanimadingmi?

Bildim: ma' danlaring kimga talashdir,
Ko'zimni yummoqlik- o'zni tanlashdir
Vatan, sening yo'lingda o'lish- yashashdir
Behbudiy bobongman, tanimadingmi?

Qara, ruhim kezar nurli hayotda
Kim ilm istaydi, saqlagay yodda
O'gitlarim qolib ketmas bayotda
Behbudiy bobongman, tanimadingmi?

